



UDK: 417.3:413.13(045)

Shahzoda SOBIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti
E-mail: shahzodasobirova6@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor v.b X.Narxodjayeva taqrizi asosida

ZOONYMIC REFERENCES IN ALISHER NAVOI'S WORK "HAYRAT-UL ABROR"

Annotation

In our literary heritage, zoonyms are distinguished by their unique semantic and artistic load. In "Khamsa", one of the rarest examples of Navoi's work, zoonyms play an important role not only in decorating images, but also in enriching their inner content. This article analyzes the quantitative aspects of zoonyms found in "Khamsa", that is, their number, frequency of repetition, and their role in the structure of the literary text.

Key words: Zoonyms, "Khayrat ul-abror", frequency, literary text, lexical feature, literary load, zoolexema.

ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT-UL ABROR" ASARIDA QO'LLANGAN ZOONIMLAR

Annotatsiya

Adabiy merosimizda zoonimlar o'ziga xos semantik va badiiy yuklama bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodining eng nodir namunalaridan biri bo'lgan "Xamsa"da zoonimlar faqat obrazlarni bezash emas, balki ularning ichki mazmunini boyitishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada "Hayrat ul-abror" asarida uchraydigan zoonimlarning kvantitativ jihatlarini, ya'ni ularning soni, takrorlanish chastotasi va ularning badiiy matn tarkibidagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Zoonimlar, "Hayrat ul-abror", chastota, badiiy matn, leksik xususiyat, badiiy yuklama, zooleksema.

ЗООНИМЫ, ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ «ХАЙРАТ УЛЬ-АБРОР»

Аннотация

В нашем литературном наследии зоонимы отличаются уникальным семантическим и художественным значением. В «Хамсе», одном из редчайших образцов творчества Навои, зоонимы играют важную роль не только в украшении образов, но и в обогащении их внутреннего содержания. В статье анализируются количественные аспекты зоонимов, встречающихся в «Хамсе», а именно их количество, частота повторения и их роль в содержании художественного текста.

Ключевые слова: Зоонимы, «Хайрат ул-аброр», частотность, художественный текст, лексический признак, литературная нагрузка, зоолексема.

Kirish. Alisher Navoiy o'z asarlarida zoonimlarni ma'naviy va lavziy san'atlarda mahorat bilan qo'llagan. Adib asarlarida boshqa leksemalar singari zoonimlar ham faol ishlatilgan bo'lib, biz ulardan ham tasviriy vosita, ham ilmiy-adabiy manba sifatida foydalanishimiz mumkin. Dostonda so'z qo'llash o'rni zoonimni ishlatish asarning badiiy estetik qimmatini va ta'sir kuchini oshiradi.

Zoonim – bu hayvonot dunyosi vakillari va uning asosiy nominativ kategoriyasi. Bu atama hayvonlar va jonzorlarning nomini aniqlash uchun ishlatiladi hamda semantik tuzilishga ega bo'lgan leksikalar hayvonlarning nomlarini bildiruvchi elementlar orqali to'g'ridan-to'g'ri nomni taqdim etishni o'rganadi. Hayvonlarning nomlarini o'rganish ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelmoqda. Eng umumiy xulosaga ko'ra, zoonimning ta'rifi leksik-semantik so'zning, ya'ni hayvon nomining umumiy variantidir. Zooleksema quyidagicha ta'riflanadi: leksik birlik bo'lib, boshlang'ich ma'nosi hayvonning nomi, keyingi o'rinlarda so'zning qanday ma'noda kelganini aniqlaydi. Bundan tashqari, ushbu birliklar zoonim sifatida ajratiladi. Zoonim o'z ichiga olgan leksema murakkab leksik zoonim sifatida belgilanadigan birlik asl nusxa sifatida emas, balki leksikaning hosilalaridan biri sifatida kosemantik variant bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy xalqlarda zoonimlarning tadqiq etilish tarixi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi[1]. Ushbu asar turkiy xalqlarning noyob durdona asari bo'lib, lug'atda xalq

og'zaki ijodiga oid 300dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Bu matnlar tarkibida 200ga yaqin zoonim, jumladan, 100ga yaqin qush nomi uchraydi. XI asrda yashab ijod etgan etnograf, filolog, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari – butun turkiy xalqlarning nodir manbasidir. S.Rustamova ta'kidlaganidek: "Devonu lug'otit turk"da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, urug' va qabilalarning nomlari, faxriy unvonlari, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari, o'simliklarning nomlari, astrologik atamalar, xalq taqvimi, oy, hafta, kunlarning nomlari, jo'g'rofiy atamalar, shaharlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma'muriy vazifalarga oid atamalar bor. Kitob o'zida shu qadar ko'plab rang-barang ma'lumotlarni mujassam etganki, ularni tahlil va tavsif qilish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi.

Taniqli olim, turkolog A.M.Shcherbak turkiy tillardagi zoonimlarning leksik-semantik hamda etimologik jihatlarini o'rgangan[2]. Shu mavzu yuzasidan, N.Nishonovanning "O'zbek tilida "hayvon" arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili"[3] nomli nomzodlik dissertatsiyasi, H. Saidovanning "O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanishi" nomli nomzodlik dissertatsiyalari mavjud. A.Mirboboyev tomonidan 1991-yilda eroniy tillarga xos vaxan tilidagi hayvon nomlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan[4].

Tahlil va natijalar. Zoonimlarning ba'zilar bizning tasavvurimizda mavjud bo'lgan afsonaviy va xayoliy jonotlar bo'lsa, yana ba'zilar real hayotda yashaydigan hayvon va qushlarning nomlaridir. Badiiy matnda esa ular katta-kichikligi, yirtqich yoki yovvoyi ekanligiga qarab qarshilastiriladi. B.Zaripov o'zining "Zoonimlarning badiiy san'at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki" (Alisher Navoiy asarlari asosida)[5] nomli dissertatsiyasida "Hayrat ul-abror" dostonidagi ayrim hayvon, qush va hasharot nomlarini aniqlab, badiiy san'atlar hosil qilishda ishtirok etishini tadqiq qilgan.

"Hayratul-abror" dostonida sher, ot, it, maymun, qoplon, mo'r (chumoli), palang (yo'lbars), mushuk, burgut, aqrab (chayon), o'rgamchi (o'rgimchak), buqalamun, yilon (ilon), qo'y, qo'zi, bulbul, nahang, ajdar, parvona, teva(tuya), durroj (qirg'ovul), bo'ri, tulki, quyon, abobil (qaldirg'och,uzunqanot)[6], fil va boshqa hayvon va qush nomlari ishlatilgan. Quyida Alisher Navoiyning yigirma jildlik Mukammal asarlar to'plamiga kiruvchi yettinchi tom, ya'ni "Hayrat ul-abror"[7] asarida qo'llangan zoonimlarga birma-bir to'xtalib o'tamiz:

«Mim»i yiloni damidin o't sochib,
Yo'l boshida yotibon og'zin ochib, 6-b

Ushbu baytda [ilon] zoonimining eski o'zbek tilida [yilon] shaklida ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. Yana bir o'rinda esa [buqalamun] zoonimi orqali insonlarning o'zgaruvcha xarakteriga ishora qilingan:

Tiyri qalamzan chu topib ul sharaf,
Buqalamunlug'ni qilib bartaraf. 42-b

Quyidagi misrada hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydigan [abobil] qushi, ya'ni uzunqanot(yana bir o'rinda qaldirg'och) deb nomlangan zoonim ishlatilgan:

Ko'rki ne bir lahzada bo'ldi qatil.
Tayri abobil ila as'hobi fil. 345-b

Qush ko'p o'lur bog' harimig'a xos,
Bulbul ila gulga bo'lur ixtisos. 51-b
Dema yilon, ajdar erur ganj sanj,
Muzmar aning javfida yuz turfa ganj, 238-b

Yuqoridagi misralarda esa, [bulbul], [yilon], [ajdar] kabi zoonimlar orqali metaforik ma'no ko'chishi, ya'ni insonlarga xos xususiyatlarni hayvonlar faoliyatiga o'xshatish yuzaga kelgan.

Yana bir o'rinda [ot] va [ilqi](yilqi) leksemalari orqali butun-qism munosabati ko'zga tashlanadi:

Ot anga tortarki, yuz ilqisi bor,
Sim anga berurki, yuz ilg'isi bor. 153-b

Beshinchi maqolatdagi "Xotami Toyning sahovatpeshaligi haqidagi rivoyat"da keltirilgan quyidagi baytlarda [teva](tuya), [qo'y], [qo'zi] zoonimlari o'z ma'nosida, [tulku] (tulki), [it] va [sher] zoonimlari esa ko'chma ma'noda qo'llanganini ko'rishimiz mumkin:

Matbax aro yuz teva qurbon edi,
Qo'yu qo'zi behadu poyon edi. 160-b

Tulkuvu it kulgu eshigin ochar,
Sher ko'rungach ulus evdin qochar 165-b

O'ninchi maqolatdagi "Sher va durroj" hikoyatida [sher], [durroj], [mo'r](chumoli) zoonimlari ishtirok etgan:

Bor edi bir beshada bir tund sher,
Vahshat aro ko'k asadidek dalir 222-b
Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,
Mo'r bolasin qilur erdi halok.

Bor edi durroje[8] o'shul beshada,
Sheri jayon vahmidin andeshada. 223-b

Quyidagi [qoplon] va [it] zoonimlari qarshilastirilib, antonimlik hodisasi yuzaga kelgan:

Shaynda qoplondin agarchi fuzun,
Nafs itining ilgida lekin zabun. 132-b
It eti qoplon kibi quti aning,

Kibr yeli bodi buruti aning. 286-b

"Hayrat ul-abror" dostonidagi yana bir baytda [palang](yo'lbars), [nahang] zoonimlari mahurat bilan qo'llangan:

Safhai rammol qoshida palang,
Reza suv qurtiyu yiloni nahang. 289-b

Qilmoq uchun ko'zga fuzun ko'rkini,
Boshig'a maymun chu qo'yar bo'rkini. 165-b

Yuqoridagi misrada [maymun] zoonimi orqali o'xshatish san'ati yuzaga kelgan. Shuningdek, "Hayrat ul-abror" asarida yuqoridagi misollardan tashqari ham bir qator misralarda zoonimlarning yorqin namunalari uchratish mumkin. Ularning ayrimlari o'z ma'nosida bo'lsa, ayrimlari ko'chma ma'noda ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Muhokama. Alisher Navoiy asarlarida, xususan, "Hayrat ul-abror" dostonida zoonimlar estetik vosita sifatida muhim funksiyani bajaradi. Yuqorida tahlil qilingan misollar shuni ko'rsatadiki, muallif zoonimlarni oddiy nomlash vositasi sifatida emas, balki badiiy mazmunni chuqurlashtirish, obrazni kuchaytirish, ramziy ma'no yaratish va ma'naviy-axloqiy g'oyalarni yetkazish uchun mahorat bilan qo'llagan. Har bir zoonim o'zining lingvistik va semantik yuklamasi bilan alohida poetik vazifani bajaradi.

Zoonimlarning ishlatilish chastotasi va ma'nodagi ko'chishlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy ularni faqatgina hayvonlar dunyosiga oid so'zlar sifatida emas, balki inson xarakteri, jamiyatdagi rollar, ijtimoiy-axloqiy holatlarni ifodalashda ham faol qo'llagan. Masalan, [buqalamun] – o'zgaruvchanlik ramzi sifatida, [it] va [sher] – past va baland axloqiy fazilatlar o'rtasidagi ziddiklar ramzi sifatida, [maymun] – soxta go'zallik va g'ururni fosh etuvchi obraz sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, doston matnida zoonimlar ko'pincha metafora, o'xshatish va antonimiya kabi badiiy san'at turlarini yaratishda asosiy vosita sifatida ishlatilgan. Ular yordamida qahramonlarning fe'l-atvori, ijtimoiy holati, hatto tarixiy-madaniy kontekst ham ifodalanadi. Bu esa Navoiy tilining boyligi va badiiy ifoda imkoniyatlarining kengligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, zoonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari ham diqqatga sazovor: ular orqali o'sha davr jamiyatida mavjud bo'lgan hayvonotga munosabat, hayvonlar obrazining axloqiy-madaniy qadriyatlaridagi o'rni haqida ham muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ba'zi zoonimlar (masalan, [abobil], [ajdar]) afsonaviy jonotlar bo'lishiga qaramay, ular orqali diniy yoki mifologik tasavvurlar ham san'atkorona ifodalanagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Hayrat ul-abror" dostonida qo'llangan zoonimlar faqatgina leksik birlik sifatida emas, balki badiiy-estetik vosita, semantik yuk ko'taruvchi obraz va poetik tafakkurning mahsuli sifatida ko'zga tashlanadi. Bu holat Navoiy asarlarini lingvopoetik tahlil qilishda zoonimlarning alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylanishi zarurligini ko'rsatadi. "Xamsa" dostoni tarkibiga kiruvchi "Hayrat ul-abror" asaridagi zoonimlarning kvantitativ tahlili ularning faqat adabiy san'at nuqtayi nazaridan emas, balki o'zbek madaniyati va xalq tafakkuri bilan bog'liqligini ham namoyon etadi. Har bir zoonim o'ziga xos badiiy vazifani bajaradi va dostonidagi g'oyaviy mazmunni boyitishga xizmat qiladi. Asarda sher 14 marta, it 18 marta, nahang 4 marta, yilon 16 marta, bulbul 10 marta, qoplon 2 marta, palang 2 marta, maymun 2 marta, durroj 6 marta va boshqa zoonimlar qo'llangan. Ushbu tahlillar Alisher Navoiy ijodining ko'p qatlamli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Alisher Navoiy asarlari nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik jihatidan ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Рустамова С. Маҳмуд Қошғарий ва унинг “Девону луготит турк” асари // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент:
2. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, № 2, 1996. – Б. 156. 124-125.
3. Шчербак А.Н. Названия домашних и диких животных в тюрских языках // Историческое развитие лексики тюрских языков. – М., 1961. – с. 82-172.
4. Nishonova N. O'zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmumiy tahlili. Filol.fan nom. diss. Avtoref, - T., - 2000.
5. Мирбобоев А. Лексико животноводство ваханского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 1991. – 21с.
6. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки.(Алишер Навоий асарлари асосида) Филол.фан ном. Диссертация, - Тошкент, 2002. – 128 б.
7. Abobil qushi Qur'oni Karimning “Fil” surasida aytilishicha, fil minganlarni (egalarini) halok qilgan qushlarning nomi, uzunqanot. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at.Toshkent, - “Fan”, 1992. 374 b.
8. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. Ҳайрат ул-аброр. «Фан» нашриёти.Тошкент —1991.422 б.
9. ДУРРОЖ - кирғовул: (Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари лугати. Тошкент, - «NISO POLIGRAF», 2013. 1008 б.)